



**INTERFAOL SEMINARLAR, AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH,  
O‘TKAZISH METODIKASI VA TEXNOLOGIYASI**

**Obidaxon Baxodirjonovna Po‘latova**

*Guliston davlat pedadodika instituti*

*Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

*E-mail: obida.pulatova1993@gmail.com*

***Annotatsiya.** Interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etish, o‘tkazish metodikasi va texnologiyasi ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada interfaol metodlarning mazmuni, ularning ta‘lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, seminarlar va amaliy ishlarni o‘tkazishda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida taqdim etiladi. Maqolada shuningdek, ushbu metodlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** interfaol metodlar, seminarlar, amaliy ishlar, ta‘lim jarayoni, metodik tavsiyalar, pedagogik texnologiyalar.*

***Аннотация.** Организация и проведение интерактивных семинаров и практических занятий играют ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса. В данной статье рассматриваются сущность интерактивных методов обучения, их значение в учебном процессе, а также их применение в семинарах и практических занятиях. Интерактивные методы представлены как эффективные инструменты для повышения вовлеченности студентов, развития критического мышления и укрепления усвоения знаний. Кроме того, статья предоставляет методические рекомендации по внедрению этих методов в образовательную практику.*

***Ключевые слова:** интерактивные методы, семинары, практические занятия, образовательный процесс, педагогические технологии, методические рекомендации.*

***Annotation.** Organizing and conducting interactive seminars and practical sessions play a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process. This article explores the essence of interactive teaching methods, their significance in the learning environment, and their application in seminars and practical activities. Interactive methods are presented as effective tools to boost student engagement, foster critical thinking, and reinforce knowledge retention. Additionally, the paper offers methodological recommendations for implementing these methods in educational settings.*

***Key words:** interactive methods, seminars, practical sessions, educational process, pedagogical technologies, methodological recommendations.*

## **KIRISH**

Seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari: “Ta‘lim sifatini oshirish” bo‘yicha bir qator hujjatlarda amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion o‘qitish usullari alohida takidlangan. Amaliy mashg‘ulotlar va seminarlarda zamonaviy



texnologiyalardan foydalanish va kreativ yondoshuvlar talab etiladi. Yoshlarning nazariy bilimlari amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlanishi kerakligi ta'kidlangan.

Prezidentning 2020-yil 29-dekabrdagi murojaatnomasida: Ta'lim tizimida yangi o'quv metodlari joriy etilishi, jumladan, amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati oshirilishi zarurligi qayd etilgan. Seminar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhumlari belgilangan. Interfaol seminarlar va amaliy ishlar ta'lim jarayonining ajralmas qismlari bo'lib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi hamda texnologiyasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsga faol ishtirokini ta'minlab, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu metodlar orqali o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Shu sababli, interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etishning samarali usullarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir [2].

Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Mehmonov M.H. va Abduraximov Z.A. tomonidan interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi mohiyati va ularni qo'llash texnologiyasi haqida tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, Adizova S.Yu. va Boboqulov D.A. mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda interfaol metodlarni qo'llash orqali kasbiy bilim, ko'nikma va faoliyatlarni shakllantirish masalalarini yoritganlar. Bundan tashqari, Xurramova D.B. interfaol texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqqan. Agar interfaol seminarlar va amaliy ishlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalar asosida to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanadi, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari oshadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini va ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ushbu maqolada interfaol metodlarning mazmuni, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, seminarlar va amaliy ishlarni o'tkazishda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy



fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida taqdim etiladi. Maqolada shuningdek, ushbu metodlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi.

### **METODOLOGIYA**

Amaliy mashg'ulot (lot. "praktikos" – faol, ishchan) – talabalarda o'quv fanining alohida nazariy g'oyalarni tahlil qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'uloti shakli. Bu turdagi o'quv mashg'ulotlari maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etiladi.

Seminar (lot. seminarium — ko'chatxona; maktab) — oliy yoki o'rta maxsus maktab talaba (o'quvchi)larining muayyan nazariy kursni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv amaliyotining muhim turlaridan biri. Talaba tomonidan bajarilgan referat, ma'ruza, ilmiy tadqiqotning muhokamasidan iborat. Seminar albatta, mavzuni ilmiy tadqiq etgan professor-o'qituvchi yoki tegishli mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. O'quv predmeti harakteri, mashg'ulot maqsadi, o'quv yurti yo'nalishiga ko'ra ayrim o'ziga xosliklar bilan universitet, institut hamda xalq xo'jaligi sohalarida keng tarqalgan. Ba'zan ma'ruzaga bog'liq bo'lmagan holda, muayyan mavzudagi mustaqil ta'lim shakli sifatida ham o'tkaziladi. Ta'limning seminar shakli darslar, asosan, bahs-munozara tarzida uyushtiriladigan Yunoniston va qadimgi Rim maktablarida vujudga kelgan. XVII-asrdan boshlab G'arbiy Yevropa universitetlarida gumanitar yo'nalishda o'qiydigan talabalarning asl manbalar bilan ishlash usuli ta'limning asosiy shakli sifatida qo'llanilganligi seminarning taraqqiyoti va hozirgi shaklga kelishida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy seminarlar muayyan predmetni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Seminar mashg'ulotlari davomida talaba (o'quvchi)lar ilmiy ish yuritish tajribasi, o'z xulosalarini og'zaki va yozma ravishda ifodalay olish hamda nuqtai nazarlarini asosli himoyalash malakasiga ega bo'ladilar. Bu xil mashg'ulotlarning 3 turi mavjud:

1) Muayyan kursni chuqurlashtirib o'rgatishga yo'naltirilgan seminar kurs doirasida asosiy va muhim hisoblangan mavzularni o'rganishga qaratilgan seminar ilmiy izlanishga yo'naltirilgan, ma'ruza mavzusiga aloqador bo'lmagan seminar. Seminar mashg'uloti o'tkazishning asosiy shartlaridan biri barcha ishtirokchilar uchun mavzu yoki mutaxassislikka bog'liq adabiyotlar, manbalar, arxiv materiallari va qo'lyozmalardan foydalanishda birdek imkoniyat yaratilishidir. Seminar mavzulari



tegishli professor-o'qituvchilar tomonidan tuzilib, kafedra majlisida tasdiqlanadi. Seminar mavzusini qiziqishlariga ko'ra, talaba (o'quvchi)larning o'zlari tanlashlari mumkin. Seminar rahbari o'tkaziladigan seminarning maqsadi, mavzu mundariyasi, uning metodologik yo'nalishini ma'ruza, ma'ruza-suhbatlar vositasida tushuntirib beradi. Undan keyin har bir mavzu bo'yicha aniq talablar belgilab beriladi, adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Seminar rahbari esa bunda maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Seminar mashg'ulotlarining mahsuli, odatda, referat bo'ladi. Referatlar mashg'ulot davomida tinglanadi va muhokama etiladi. Referatlar mavzuga mos kelishi, metodologik asosi to'g'ri bo'lishi, mantiqan izchil va aniq ifodalanishi, ilmiy xulosalar asosli hamda amaliyotga aloqador bo'lishi kerak. Muhokama jarayonini fikr almashuv tarzida, barcha savollarga javob topa olish imkonini beradigan darajada tashkil etish seminar rahbarining asosiy vazifasidir. Seminar mavzulari keyinchalik talaba (o'quvchi)larning kurs, diplom ishlari mavzusiga aylanadi. Ular hatto dissertatsiya mavzusi darajasigacha ham chiqishi mumkin;

2) Muayyan agrotexnik tadbir bo'yicha o'tkaziladigan maslahat yig'ilishi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi biror agrotexnik tadbir bo'yicha paydo bo'lgan yangiliklarni tegishli mutaxassislariga tanishtirish maqsadida o'tkaziladigan seminarlar keng yoyilgan. Mas, chigit yoki bug'doy ekish, paxta yoki don hosilini yig'ib olish bo'yicha o'tkaziladigan seminarlar;

3) O'zbekistonda nomzodlik yoki doktorlik ilmiy darajasiga da'vogarning tayyorgarligini sinab ko'rish uchun ilmiy tadqiqot muassasasi va oliy o'quv yurtlaridagi olimlarni o'z ichiga oluvchi ilmiy tuzilma. Nazariy seminar deb ataladigan bu tuzilma majlisida da'vogar o'z dissertatsiyasidagi asosiy g'oyani bayon etib beradi. Seminar a'zolari esa turli savollar bilan uning tayyorgarlik darajasini sinovdan o'tkazadilar.

Turli amaliy mashg'ulotlar va o'tkazish shakli. Ularning bir nechtasi bor va ularning har biri seminarning barcha funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Rossiya universitetlarida seminarlar quyidagi shaklda o'tkaziladi:

- uzoq suhbat;
- nizo;
- maruzalar va tezislarni muhokamasi;
- fikr qoldirgan o'qish;
- mustaqil fikrlash uchun mashqlar;



- yozma testlar;
- kollokvium.

Ba'zan o'qituvchilar seminar darsini ishlab chiqishda boshqa ketma-ketlikdan foydalanadilar:

- birinchidan, talabalar 15-20 daqiqa ichida ma'ruza bilan tanishadilar, unda mavzu bo'yicha umumiy savollar va muammolar ochib beriladi;
- keyin mustaqil ishlash uchun vaqt beriladi;
- sessiyaning qolgan qismi seminar o'tkazish va talabalar tomonidan tushunarsiz bo'lgan masalalarni yoritishga bag'ishlangan.

Seminarining uslubiy ishlanmalari - sinfda so'rov o'tkazishga tayyorlanayotgan o'qituvchi, eng avvalo, uning tuzilishini o'ylab ko'rishi kerak.

Universitetlardagi seminarlarda quyidagilar bo'lishi kerak:

- mavzuni aks ettiruvchi nom;
- darsning maqsad va vazifalari;
- ketma-ket reja;
- bilimlarni nazorat qilish materiallari;
- trening misollari.

### ***Seminar-ta'limni tashkil etish shakli***

Seminar - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

1. Kitob bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini singdirish.
2. Nutq madaniyatini rivojlantirish.
3. O'z fikrida daliliy turish ko'nikmasini shakllantirish.
4. Tinglovchilarni savollariga javob berish ko'nikmasini shakllantirish.
5. Boshqalarni tinglash, savollar berish ko'nikmasini shakllantirish.
6. Ta'lim beruvchi seminarni samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur.
7. O'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi.
8. O'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati.
9. O'quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Seminar mashg'ulot rejasi asosiy materialni qamrab olishi va qisqa, aniq, tushunarli bo'lishi zarur.



Ular tasdiqlovi va savolli shaklda ham ifodalanishi mumkin. Qoidagi muvofiq seminar mashg'ulotiga 4-6 savollar olib chiqiladi.

Ma'ruzada uch asosiy qismni ajratadilar:

1. Kirish qismi bo'lib, bunda mavzu uning ahamiyati aniqlanadi;
2. Asosiy qism, bunda mavzu mazmuni bayon etiladi;
3. Yakuniy qism, bunda mavzu umumlashtiradi, xulosalar qilinadi. Ma'ruzaning davomiyligi-20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Seminarni asosiy markazi bo'lib ma'ruza muhokamasi, savol-javob va ma'ruza muhokamasi, ma'ruzachining yakuniy so'zga chiqishi. Seminarni asosiy markazi bo'lib ma'ruza muhokamasi, savol-javob va ma'ruza muhokamasi, ma'ruzachining yakuniy so'zga chiqishi. Referatlarni tayyorlash. Talabaning ijodiy ishining murakkab shakli hisoblanib, u insho yozish, tugallangan mehnatni anglatadi. Referat mavzulari taqsimlayotganda bir vaqtni o'zida opponentlarni ham belgilaydilar. Ular oldindan referat mazmuni bilan tanishishlari va unga taqriz tayyorlashi kerak. Taqrizda uning yutuqlari va kamchiliklarini ko'rsatish, uni mazmuni bo'yicha to'ldirishlarni kiritish yuzasidan tavsiyalar berish kerak. Opponentlardan so'ng muhokamaga talabalar qo'shiladilar. Yakunda o'qituvchi referatga, opponentga va boshqa so'zga chiqqanlarga baho beradi. Disput (tortishuv)-seminar. Muammoni asosli hal etish yuzasidan jamoaviy muhokama qilishni nazarda tutadi. Disput-seminar dialogik muloqat shaklida olib boriladi. U yuqori aqliy faollikni nazarda tutadi, tortishuni olib borish, materialni muhokama qilish, nuqtai nazar va o'z fikrini himoya qilish, o'z fikrlarini keng va aniq bayon etish ko'nikmasiga odatlantiradi. Qo'shma shakldagi seminar. Bu ma'ruzalar muhokamasi, erkin so'zga chiqishlar, shuningdek, munozarali muhokamalarning birikmasidir.

### ***Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni***

Seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishini tashkil etish shaklidir. Mavzu o'rganilgunga qadar o'qituvchi talabalar uchun savol va topshiriqlar tuzib chiqadi. Kirish mashg'ulotida u talabalarni materialning mazmuni, qilinadigan ishning xarakteri bilan qisqacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun topshiriq beradi va tayyorlanishi uchun adabiyot ko'rsatadi. Bir xil vazifalar hamma uchun umumiy bo'ladi, boshqa vazifalar ayrim talabalarga yoki 3- 4 kishidan tuzilgan guruhga beriladi. Bunda hamma talabalar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishlari kerak.



Seminarlarga 2–3 hafta tayyorgarlik ko‘riladi. Talabalar adabiyotni o‘rganadilar, material yig‘adilar, har xil kuzatishlar o‘tkazadilar, o‘z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.

Seminarlar o‘qish vaqtida o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o‘rganish uchun ajratilgan vaqtga bog‘liq. Talabalar mashg‘ulotlarda axborot beradilar, ularga turli xil namoyish etiladigan narsalarni ilova qiladilar. Masalani muhokama qilishda hamma o‘quvchilar ishtirok etishadi. Seminarga puxta tayyorlanish uchun o‘qituvchi ayni bir vazifani hammaga yoki bir necha talabaga berishi, ma‘ruzachini esa mashg‘ulot boshlanishida tayinlashi mumkin.

***Seminar va amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashg‘ulotlar***

Seminar mashg‘uloti o‘qituvchi rahbarligida o‘tkaziladi, u talabalar ishini yo‘naltirib turadi, mavzu savollari muhokamasini yakunlaydi, zarur qo‘shimcha, tuzatishlar kiritadi, materialni tizimga soladi. Ma‘ruza qilgan, muhokamada qatnashgan talabalarga baho (ball) qo‘yiladi. Bu usulning afzalligi talabalar e‘tiborini darsga jalb etish bilan ularning qiziqishini orttirish, o‘z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga o‘rgatish, darsni faollashtirish va talabalar qobiliyatini o‘stirishdir. Amaliy tajriba mashg‘ulotlari auditoriya – dars tizimi shaklida olib borilmaydigan mashg‘ulot turi bulib, u maxsus jixozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchastkasida, shuningdek, bevosita ta‘lim ishiga aloqador ma‘lum ob‘ektni kuzatish, o‘rganish yo‘li bilan olib boriladigan mashg‘ulotdir.

***Seminar darsini texnologik yondoshuv asosida tashkil qilish***

Ta‘limning bunday mashg‘ulotlarini tashkil kilish ikki xil yo‘l bilan olib boriladi:

Bosqichi	Tavsifi	Vaqt	Usul	Vositalar
1. Tayyorgarlik bosqichi	Seminar mavzusini belgilash, materiallar va vositalarni tayyorlash	10-15 daqiqa	Mavzuni tanlash	Dars rejalari, kitoblar, elektron resurslar
2. Kirish qismi	Ishrirokchilarni mavzuga jalb qilish, seminar maqsadi va muhumligi haqida ma‘lumotlar berish	5-10 daqiqa	Savol-javob muhokama	Slaydlar taqdimot materiallari



3. Asosiy qism	Mavzuni batafsil yoritish: nazariy va amaliy tushuntirish, misollar keltirish	25-30 daqiqa	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar	O'qituvchi taqdimoti, doska, vizualmateriallar
4. Guruh bilan ishlash	Guruh ishi yoki rolli o'yinlar orqali mavzuni mustahkamlash	15-20 daqiqa	Guruh ishlari, muhokama	Muammo ssenariylar, topshiriqlar
5. Yakuniy qism	Xulosa chiqarish, muhokama, savol-javob va fikr mulohaza yig'ish	10-15 daqiqa	Savol-javob, xulosa	Qog'oz shaklidagi so'rovnoma yoki elektron shakllar
6. Baholash va tahlil	Ishtirokchilar faoliyatini baholash va samaradorligini o'rganish	5-10 daqiqa	Tahlil qilish	Baholash mezonlari

1. Amaliy tajriba mashg'ulotlari.

2. Sayohat (ekskursiya)lar.

Amaliy mashg'ulotlarning nazariy asoslari auditoriyada o'tilib, mashg'ulotning tashkil qilinishiga oid yo'l-yo'riq va ko'rgazmalar yer uchastkasida yoki mashg'ulotning mazmuniga oid joyda beriladi.

***Seminar mashg'ulotini o'tkazish texnologiyasi***

Bosqich	Faoliyat tavsifi	Metod va usullar	O'qituvchi - faoliyati	Talabalar faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Amaliy mashg'ulot mavzusini e'lon qilish, maqsad va vazifalarni tushuntirish	Suhbat kirish so'zi	Mashg'ulot rejasini tushuntirish	Diqqat bilan tinglash
2. Mavzuni tanishtirish	Mavzu bo'yicha nazariy asoslarni qisqacha tushuntirish	Qisqa maruza taqdimot	Nazariy ma'lumotlarni yoritish	Eshitish savollarni berish
3. Vazifalarni taqsimlash	Guruhlarini shakllantirish va topshiriqlarni	Guruh ishlari, muammoli	Guruh ishlarini yo'naltirish	Guruhga bo'linish, topshiriqlarni



	taqsimlash	yondoshuv		qabul qilish
4. Amaliy bajarish	Berilgan topshiriqni bajarish, jarayonni kuzatish va boshqarish	Amaliy ishlar	Vazifani kuzatish, kerakli yordamni berish	Amaliy topshiriqlarni bajarish
5. Tahlil va xulosa	Bajarilgan ishlarni tahlil qilish, guruh ishlari natijalarini baholash	Muhokama, taqdimot	Bajarilgan ishlarni baholash va xulosa qilish	O'z ishlarini taqdim qilish va tahlil qilish
6. Yakuniy xulosa	Umumiy xulosa choqarish va mashg'ulotning asosiy fikrlarini qayd etish	Savol-javob, umumlashma	Mashg'ulotni yakunlash va talabalarning faoliyatini baholash	Xulosalarni eshitish va savollar berish

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish metodikasi va texnologiyasini o'rganish natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

1. *O'qituvchining kasbiy mahorati va bilim darajasi:* Seminar va amaliy mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy tadqiqotlardan xabardor bo'lishi va talabalarning savollariga aniq javob bera olishi zarur. Bu talabalar uchun o'qituvchini ishonchli manba sifatida qabul qilishlariga yordam beradi.

2. *Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi:* Amaliy mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan foydalanish talabalarining faolligini oshiradi va o'quv materialini o'zlashtirishni yaxshilaydi. Bu usul, ayniqsa, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda samarali hisoblanadi.

3. *Pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi:* Seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshiradi va talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. *O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish:* Seminar va amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish



va o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalardan foydalanish o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy mahorati va bilim darajasi ham ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, interfaol seminarlar va amaliy ishlarni tashkil etish, o'tkazish metodikasi va texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol usullar o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Seminarlar va amaliy ishlarni o'tkazishda ushbu metodlarni qo'llash o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi va texnologiyasini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A.Karimov. "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" - Toshkent. Sharq nashriyoti.
2. B.X.Xodjayev. "Umumiy pedagogika" – Toshkent-2017.
3. B.T.Jurayev. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Buxoro-2022.
4. S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Darslik - Toshkent-2014.
5. M.M. Axmedjanov, B.Q. Xo'jayev, Z.D. Hasanova. Pedagogik mahorat. Toshkent – 2010.
6. "O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2023.
7. O'ktamova Sh.U. JDPUsirtqi bo'lim "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrası stajyor-o'qituvchisi "Pedagogik jarayonni tashkil qilishda tizimli yondashuv"nomli maqola.
8. G.P.Isayeva. Guliston davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori v.b Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanidan



zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua – Guliston - 2024.

9. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy ta'limda innovatsion usul va vositalar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
10. Kamiljanovna, Z. D., O'G'Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis of Higher Order Thinking Skills. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 672-676.
11. Begmatova, D. M. (2020). O 'zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya. Samarqand: SamDChTI.
12. Begmatova, D. M. (2022). Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvida – xalq pedagogikasining didaktik va akmeologik ahamiyati. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 146-149.
13. Mukhtarovna, B. D., & Kudratovna, D. N. (2022). Professional socialization of youth in family education. *European Scholar Journal*, 3(3), 92-94.
14. Бегматова, Д. М. (2011). Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье. *Молодой ученый*, (5-2), 127-129.
15. Mukhtarovna, B. D. (2023). Pedagogical prerequisites for the development of cultural immunity in students based on an individual approach. *Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari*, 10, 58-62.
16. Begmatova, D., & Alimjanova, D. (2024). Author's pedagogical technologies in medical universities. *Science and innovation*, 3(B9), 14-17.
17. Mamayoqubova, S., & Begmatova, D. (2023). Pedagogical conditions of developing professional competence of teachers of higher educational institutions. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 65, p. 10025). EDP Sciences.
18. Begmatova, D. M. (2020). The role of professional socialization of youth in family and the impact of pedagogical conditions on its of ensuring. *Theoretical & Applied Science*, (11), 244-249.
19. Mukhtarovna, B. D. (2021). Professional socialization of youth as a pedagogical problem. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1207-1212.
20. Begmatova, D. M., Daminova, N. K., & Vaydulla, M. M. (2022). Improving the pedagogical content of professional socialization of youth and students in the context of globalization. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(105), 756-759.